



Ona Vatan

Miltiqboy Xonnazarov

Dunyoda onam aziz,
Onamday Vatan aziz.
Bu olamda jon aziz,
Jondan ham Vatan aziz.

Onam hamda Vatanni
Ko'zimdayin asrayman.
Ikkisin hurmatini,
Yuragimda saqlayman.


Onajonim bag'rida,
O'ynab-kulib yayrayman.
Ona Vatan qo'ynida,
Bulbul bo'lib sayrayman.

Kelajakda, albat – men,
Ulug' olim bo'laman.
Vatanimning dong'in men,
Dunyoga tarataman.





Quyidagi rebusda qanday ibora yashiringanini toping.



O'ylab ko'ring, nima uchun "Vatan" so'zini "ona" so'zi bilan birgalikda qo'llaymiz?



1. "Ona Vatan" deganda nimani tushunasiz?
2. O'ylab ko'ring, she'r kimlar tilidan aytilgan?
3. Vatanimiz nomini dunyoga taratish uchun nima qilishni xohlaysiz? Fikringizni tushuntiring.



1. She'rni ifodali o'qing.
2. She'rdan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni aniqlang.
Masalan: dunyo-olam, ...
3. She'rdan qofiyadosh so'zlarni toping.
Masalan: asrayman-saqalayman, ...

Topishmoqni o'qing. Javobini toping.

Paxta-dondan chambarak,
Sakkiz qirra yulduzli.
Humo qush baxtdan darak,
Keng dala bog' tasvirli.
Amudaryo, Sirdaryo
Unda oqib o'tadi.
Ayting-chi, bu tasvirni,
Qayda ko'rsa bo'ladi?



humo – afsonaviy qush, baxt-saodat, erkinlik ramzi

chambarak – aylana shaklida o'ralgan

ramz – biror tushunchani ifodalovchi belgi, ishora



Bu sanalar nimani ifodalaydi?

**1991-yil
18-noyabr**

**1992-yil
2-iyul**

**1992-yil
10-dekabr**



“Ona Vatan” she'rini yod oling.